

UZCARD bank kartalarini emissiya qilish va ulardan foydalanishni rag'batlantirish bo'yicha aksiyani o'tkazish to'g'risidagi

OMMAVIY OFERTA
(keyingi o'rinlarda — "Qoidalar")

Toshkent sh.

26 2026 y. may

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Aksiyada ishtirok etish bo'yicha Ommaviy oferta (keying o'rinlarda – "Ommaviy oferta") "Garant bank" AJ (keying o'rinlarda – "Tashkilotchi") tomonidan "Yagona umumrespublika protsessing markazi" AJ (keying o'rinlarda – "Hamkor") ko'magida o'tkaziladigan aksiyani (keying o'rinlarda – "Aksiya") o'tkazish va unda ishtirok etish shartlarini belgilaydi.

1.2. Mazkur Qoidalar barcha muhim shartlarni o'z ichiga oladi hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalarda ishtirok etish shartlari, g'oliblarni aniqlash va sovrinlarni topshirish tartibi, shuningdek Aksiyani tashkil etishning boshqa muhim shartlari bayon etilgan.

1.3. Aksiya Hamkori – "Yagona umumrespublika protsessing markazi" AJ, manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 78-uy.

1.4. Aksiya Tashkilotchisi – "Garant bank" AJ, manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Sayid Baraka ko'chasi, 78-uy.

1.5. Aksiya Ishtirokchisi: 18 yoshga to'lgan va mazkur Ommaviy oferta shartlarini aksept qilgan, muomalaga layoqatli jismoniy shaxs (keying o'rinlarda – "Ishtirokchi").

1.6. Aksiya Tashkilotchining "UZCARD" bank kartalarini (keying o'rinlarda – "UZCARD kartasi") emissiya qilishni rag'batlantirishga, shuningdek ulardan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lov amalga oshirishda foydalanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

1.7. Aksiya O'zbekiston Respublikasining butun hududida o'tkaziladi.

1.8. Mazkur Ommaviy oferta shartlarini qabul qilish (aksept qilish) deb Ishtirokchi tomonidan mazkur Ommaviy ofertaning 3.1-bandida nazarda tutilgan barcha harakatlarning amalga oshirilishi hisoblanadi. Mazkur harakatlarni amalga oshirish orqali Ishtirokchi ushbu Ommaviy oferta shartlari bilan tanishganligini va ularga hech qanday e'tiroz va istisnolarsiz roziligini tasdiqlaydi.

1.9. Mazkur Ommaviy ofertaning amaldagi tahriri "Garant bank" AJning www.Garantbank.uz/ / _____ / rasmiy veb-saytida joylashtiriladi. Aksiyani o'tkazish haqidagi ma'lumot mazkur Ommaviy ofertaga havola majburiy ko'rsatilgan holda e'lon qilinadi.

2. AKSIYANI O'TKAZISH MUDDATLARI

2.1. Aksiya 2026-yil 1-iyundan 2026-yil 31-avgustgacha, shu kuni ham kirgan holda o'tkaziladi (keyingi o'rinlarda – "Aksiya davri").

2.2. Aksiyada faqat Aksiya davrida Tashkilotchi tomonidan emissiya qilingan UZCARD kartalari ishtirok etadi. Aksiya maqsadlari uchun hisobga olinadigan tranzaksiyalar faqat Aksiya davrida amalga oshirilgan bo'lishi mumkin.

3. AKSIYADA ISHTIROK ETISH SHARTLARI VA AKSIYANI O'TKAZISH MEXANIKASI

3.1. Aksiya shartlari:

3.2. Aksiya Ishtirokchilari quyidagi shartlarga bir vaqtning o'zida javob beradigan jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin, ya'ni:

- 18 yoshga to'lgan shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- Aksiya davrida "Garant bank" AJda yangi UZCARD bank kartasini rasmiylashtirgan shaxslar.

3.3. Aksiyada ishtirok etish va sovrinni olish uchun Ishtirokchi Aksiya davrida bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarni bajarishi kerak:

- "Garant bank" AJ bo'limlarida o'z nomiga UZCARD bank kartasini rasmiylashtirish;
- bir UZCARD kartasidan boshqa UZCARD kartasiga pul mablag'larini o'tkazish yoki "Garant bank" AJ bankomatlari orqali naqd pul yechib olish operatsiyalarini amalga oshirish.

Imkoniyatlarni hisoblash mexanikasi:

- Ishtirokchi tomonidan Aksiya davrida amalga oshirilgan operatsiyalar umumiy hajmining har 500 000 so'mi sovrinlar o'yinida ishtirok etish uchun 1 ta imkoniyat beradi;

– Imkoniyatlar soni operatsiyalar summasiga mutanosib ravishda quyidagi hisob bo'yicha oshiriladi: har 500 000 so'm – o'yinida ishtirok etish uchun 1 ta imkoniyat;

– 500 000 (besh yuz ming) so'mdan kam bo'lgan operatsiyalar summolari, shuningdek 500 000 (besh yuz ming) so'mga karrali bo'lmagan summalar qoldiqlari imkoniyatlar sonini hisoblashda inobatga olinmaydi.

Operatsiyalarni hisobga olish davri:

– Operatsiyalarni hisobga olish butun Aksiya davri uchun jami tarzda amalga oshiriladi.

– Oylik davrlarga ajratish qo'llanilmaydi. Ishtirok etish uchun minimal chegara mavjud emas.

Qo'shimcha shartlar:

– Hisob-kitobda Ishtirokchining Aksiya shartlariga mos keladigan barcha operatsiyalarining umumiy hajmi inobatga olinadi;

– Imkoniyatlarni hisoblash bank tizimlari ma'lumotlari asosida avtomatik tarzda amalga oshiriladi;

– Umumiy hajmi 500 000 so'mga karrali bo'lgan operatsiyalar Aksiyada ishtirok etishga qo'yiladi;

– Aksiya Tashkilotchi tomonidan emissiya qilingan barcha UZCARD bank kartalari, shu jumladan xalqaro to'lov tizimlari bilan hamkorlikda chiqarilgan kobeyjing UZCARD kartalari (BIN: 56146803, 626296) ishtirok etadi.

3.3. Aksiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq lotereya hisoblanmaydi va mijozlar faolligini rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladi.

3.4. Mazkur Ofertaning aksepti Ishtirokchi tomonidan Ofertaning barcha shartlarini hech qanday istisnolar va/yoki cheklovlarisiz to'liq hamda so'zsiz qabul qilishni anglatadi va yozma shakldagi kelishuv tuzishga tenglashtiriladi.

3.5. Mazkur Ofertani aksept qilar ekan, Ishtirokchi:

- ushbu Oferta shartlari bilan to'liq tanishganligini, ularga roziligini va ularga rioya qilish majburiyatini olganligini;
- unga Oferta mazmuni hamda uni tuzish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan yuridik oqibatlar tushunarli ekanligini;
- huquq layoqatiga/muomala layoqatiga ega ekanligini hamda Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish uchun qonuniy huquqqa ega ekanligini tasdiqlaydi.

4. SOVRINLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI

4.1. Mazkur Ommaviy ofertaning 3.1-bandida nazarda tutilgan shartlar bajarilgan taqdirda, Ishtirokchi qimmatbaho sovrinlar o'yinida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi. Aksiya doirasida quyidagi sovrinlar o'ynaladi:

- iPhone 17 Pro Max – 3 (uch) dona;
- Apple Watch Series 10 – 3 (uch) dona;
- AirPods 4 – 3 (uch) dona.

4.2. G'oliblar Aksiya davri yakunlangandan so'ng Aksiya shartlarini bajargan Ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlash (random usuli) orqali aniqlanadi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Ishtirokchi mazkur Ommaviy oferta shartlari bilan tanishib chiqish hamda Aksiyaning barcha shartlari tegishli ravishda bajarilgan taqdirda sovrinni olishni talab qilish majburiyatini oladi.

5.2. Ishtirokchi mazkur Ommaviy oferta shartlariga rioya qilishi va Tashkilotchiga to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

5.3. Tashkilotchi Aksiya mazkur Ommaviy ofertaga muvofiq o'tkazilishini ta'minlaydi hamda Ishtirokchilarning ma'lumotlari maxfiy qolishini kafolatlaydi.

6. AKSIYA SHARTLARINI O'ZGARTIRISH VA AKSIYANI TO'XTATISH TARTIBI

6.1. Tashkilotchi mazkur Ommaviy ofertaga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish, shuningdek Aksiyani o'tkazish muddatlarini o'zgartirish huquqini o'zida qoldiradi. Tegishli o'zgartirishlar Ommaviy ofertaning yangilangan tahriri Tashkilotchining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

6.2. Mazkur Ommaviy ofertaga o'zgartirishlar kiritilgan yoki Aksiya muddatidan oldin to'xtatilgan taqdirda, Tashkilotchi va Hamkor Ishtirokchilar oldida bunday o'zgartirishlar yoki Aksiyaning to'xtatilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan zararlar, xarajatlar yoki boshqa oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.3. Tashkilotchi va Hamkor Ishtirokchining Aksiya ishtirok eta olmasligi uchun, agar bu Tashkilotchi va Hamkorga bog'liq bo'lmagan sabablar, shu jumladan texnik nosozliklar, uchinchi shaxslarning

harakatlari yoki harakatsizligi, shuningdek Aksiyada ishtirok etishga to‘sqinlik qiluvchi boshqa holatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, javobgar bo‘lmaydi.

7. MAXFIYLIK VA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR

7.1. Mazkur Ommaviy ofertani aksept qilar ekan, Ishtirokchi Tashkilotchiga Aksiyani o‘tkazish va mukofotni to‘lash maqsadida o‘zining shaxsga doir ma‘lumotlarini (F.I.Sh., JShShIR, UZCARD kartasi rekvizitlari, amalga oshirilgan tranzaksiyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va boshqalar) yig‘ish, ularga ishlov berish va saqlashga rozilik beradi.

7.2. Tashkilotchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shaxsga doir ma‘lumotlar hamda bank siri hisoblangan ma‘lumotlarning himoya qilinishini kafolatlaydi.

8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Ishtirokchi taqdim etilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi hamda Aksiyada ishtirok etish shartlariga rioya qilinishi uchun javobgar hisoblanadi.

8.2. Tashkilotchi va Hamkor quyidagilar uchun javobgar bo‘lmaydi:

– Ishtirokchilarning mazkur Ommaviy oferta shartlari bilan, shuningdek Aksiya natijalari bilan tanishmaganligi;

– uyali aloqa operatorlari va internet-provayderlarning texnik nosozliklari, uzilishlari hamda profilaktika ishlari;

– Ishtirokchi tomonidan Aksiyada ishtirok etish va (yoki) sovrinni olish bilan bog‘liq ravishda qilingan har qanday xarajatlar va (yoki) ko‘rilgan zararlar.

8.3. Tashkilotchi va Hamkor telefon raqami yoki UZCARD kartasiga egalik qilish bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqmaydi; bunday masalalar Ishtirokchi tomonidan mustaqil ravishda hal etiladi.

9. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

9.1. Mazkur Ommaviy oferta bilan bog‘liq yuzaga keladigan barcha kelishmovchiliklar va nizolar Ishtirokchi hamda Bank o‘rtasida oqilona muddat ichida muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi.

9.2. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank ro‘yxatdan o‘tgan joydagi sudga ko‘rib chiqiladi.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Mazkur Ommaviy oferta bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

10.2. Mazkur Ommaviy oferta “Bank” veb-saytida joylashtirilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi va Aksiya davri tugaguniga qadar yoki Aksiya muddatidan oldin to‘xtatilgunga qadar amal qiladi. Ishtirokchiga sovrinni topshirish bo‘yicha majburiyatlar qismida mazkur Ommaviy oferta ular to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

10.3. Firibgarlik harakatlari, til biriktirish, ma‘lumotlarni soxtalashtirish, Tashkilotchi, Hamkor yoki ularning vakillari bilan, shuningdek mukofotni olishdan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lgan boshqa shaxslar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita kelishuvlar mavjudligi aniqlangan taqdirda, shuningdek yakka Ishtirokchi tomonidan yoki Ishtirokchilar guruhi tomonidan boshqa har qanday noqonuniy harakatlar aniqlanganda, Tashkilotchi bir tomonlama tartibda Ishtirokchining ishtirokini to‘xtatib turish hamda berilgan mukofotni kamaytirish/bekor qilish huquqiga ega.

10.4. Tashkilotchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Oferta qoidalarini hisobga olgan holda, o‘z xohishiga ko‘ra mazkur Ofertaning barcha akseptlarini haqiqiy emas deb topishi, shuningdek Aksiyada ishtirok etish uchun hujjatlarni qalbakilashtiradigan yoki qalbakilashtirilgan hujjatlardan foyda oladigan, yoxud mazkur Oferta shartlarini buzib, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarini buzishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradigan har qanday Ishtirokchining Aksiyadagi keyingi ishtirokini taqiqlash huquqiga ega.

10.5. Tashkilotchi istalgan vaqtda Aksiyadagi firibgarlikning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha texnik cheklovlarni joriy etish huquqini o‘zida qoldiradi. Ishtirokchi tomonidan insofsiz xatti-harakatlarga har qanday urinish aniqlangan taqdirda, uning natijalari bekor qilinadi, Ishtirokchining o‘zi esa Aksiyadagi keyingi ishtirokdan chetlashtiriladi.

10.6. Tashkilotchi Aksiyadagi ishtirokning insofliligini baholashni o‘zidagi texnik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Oferta qoidalarini inobatga olib mustaqil ravishda amalga oshiradi.

10.7. Tashkilotchi tabiiy ofatlar, yong‘in, suv toshqini, har qanday xususiyatdagi harbiy harakatlar, blokadalar, pandemiya bilan bog‘liq karantin choralari, Aksiya o‘tkazilayotgan hududda amal qiluvchi

qonunchilikdagi jiddiy o'zgarishlar hamda Tashkilotchining nazoratidan tashqarida bo'lgan boshqa holatlar kabi fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'lmaydi.

10.8. Mazkur Ofertada nazarda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

10.9. Agar qandaydir sabablarga ko'ra mazkur Ofertaning bir yoki bir nechta qoidalari haqiqiy emas yoki yuridik kuchga ega emas deb topilsa, bu Ofertaning qolgan qoidalarining haqiqiyliги yoki qo'llanilishiga ta'sir qilmaydi.

10.10. Tomonlarning javobgarlik choralari, shuningdek nizolarni hal etish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq belgilanadi. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilishi kerak. Tinch yo'l bilan kelishuvga erishish imkoni bo'lmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, mazkur Oferta ijro etiladigan joy bo'yicha O'zbekiston Respublikasining tegishli sudida ko'rib chiqiladi. Mazkur Oferta ijro etiladigan joy deb Tashkilotchining joylashgan manzili hisoblanadi.

10.11. Mazkur Ofertaning Aksiya o'tkazish davri yakunlangunga va u bilan bog'liq majburiyatlar bajarilgunga qadar amal qiladi.

10.12. Soliqqa tortish Tashkilotchi tomonidan ularni amalga oshirish sanasida amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Ishtirokchi tomonidan Aksiyada ishtirok etish natijasida olingan foyda, agar u O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasi talablariga mos kelsa, Tashkilotchi tomonidan jismoniy shaxsning jami daromadiga kiritilmaydi va daromad hisoblanmaydi.

10.13. Mazkur Aksiya doirasidagi to'lovlar Aksiya Tashkilotchisi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan shaxslarga mansab majburiyatlarini bajarganligi uchun beriladigan mukofot va/yoki moddiy yordam, shuningdek Tashkilotchiga tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) shaxslarga to'lanadigan haq hisoblanmaydi.

TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI:

“Garant bank” AJ

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Sayid Baraka ko'chasi, 78-uy

STIR: 201 053 901

info@garantbank.uz